

V-80
Aleksandr Volkov

URFIN JYUS
VA UNING YOG'OCH
ASKARLARI



Toshkent
«NAVRO'Z NASHRIYOTI»
2014

SO'QQABOSH DURADGOR





Poyonsiz Shimoliy Amerika qit'asining ichkarisida, keng sahro va yuksak tog'lar bilan qurshalgan joyda Sehrli mamlakat bor edi. U yerda rahmdil va yovuz parilar yashar, hayvonlar va qushlar odamdek gapisishar, yil bo'yli yoz bo'lar, daraxtlarda turli-tuman mevalar pishib yotar edi.

Sehrli mamlakatning janubi-g'arbida mo'min-qobil yoqimtoy mitti odamlar – tamshanuvchilar istiqomat qilishar, kattalarining bo'yli oddiy odamlar yashaydigan o'lkalardagi sakkiz yoshli bolaning bo'yicha kelardi.

Tamshanuvchilarning Moviy mamlakatiga yovuz jodugar Gingema hokimlik qilar, u chuqur, qorong'i g'orda yashar, tamshanuvchilar bu g'orning yaqiniga borishga ham qo'rkishardi. Lekin ularning orasidan bir kishi hamyurtlarini hayratga solib, jodugar yashaydigan g'or yaqinida o'ziga uy qurib oldi. Bu – Urfin Jyus edi.

Urfin Jyus bolalik chog'laridayoq sahiy, yumshoq ko'ngil avlodlaridan o'zining janjalkashligi bilan ajralib turardi. U bolalar bilan kam o'ynar, mabodo o'ynab qolgudek bo'lsa, hammaning o'ziga bo'ysunishini talab qilardi. U qatnashgan o'yin doim mushtlashish bilan tugardi.

Urfin bolaligidayoq ota-onasidan yetim qoldi. Uni Kogida qishlog‘ida yashovchi bir duradgor shogirdlikka oldi. Urfin borgan sari qo’rslashib, duradgorlikni o’rganib olgach, ustoziga minnatdorchilik ham bildirmay, unikidan chiqib ketdi. Sahiy duradgor esa unga ish boshlab olishi uchun asbob-uskunalarni berdi.

Urfin mohir usta bolib yetishdi. U stol, kursi, qishloq ho’jalik qurollari va ko’pgina boshqa narsalarni yasadi. Shunisi ajablanarlik, Urfinning qo’rs va johilligi u yasagan barcha narsalarga ham o’taverdi. U yasagan panshahalar sotib olgan kishilarning biqiniga sanchilishga, belkuraklari peshanaga urilishga, haskashlar esa oyog‘idan chalib, yiqitishga harakat qilardi. Shunday qilib, Urfin Jyus xaridorsiz qoldi.

Shundan keyin u o‘yinchoq yasay boshladi. Lekin u yasagan quyon, ayiq va kiyiklarning basharalari shunday dahshatli bo‘lib chiqdiki, unga qaragan bolalar qo’rqib, kechasi bilan yig‘lab chiqishardi. Urfinning o‘yinchoqlarini ham hech kim olmay, hujrada chang bosib yotadigan bo‘ldi.

Bundan achchiqlangan Urfin hunaridan voz kechdi va qishloqdagilarga ko‘rinmay qo‘ydi. Tomorqasidagi sabzavot, meva-cheva bilan kun kechira boshladi.

So‘qqabosh duradgor o‘z urug‘-aymoqlarini yomon ko‘rar, hech bir ishda ularga o‘xshamaslikka harakat qilardi. Tamshanuvchilar uchiga billur zoldir o‘rnatilgan nayza tomili dumaloq, moviy rang uylarda yashardilar. Urfin Jyus esa o‘ziga to‘rt burchak uy qurib, uni jigarrangga bo‘yadi, tomiga burgut qo‘g‘irchog‘ini o‘rnatdi.

Tamshanuvchilar moviyrang chakmon kiyishar, Urfin esa yashil rangli kiyimda yurardi. Tamshanuvchilarning qalpoqlari uchi nayza, keng soyaboni ostida kumush qo‘ng‘iroqlar osilib turardi. Urfin Jyus esa, bu qo‘ng‘iroqlarni juda yomon ko‘rar, shuning uchun soyabonsiz qalpoq kiyib yurardi. Ko‘ngli bo‘sh tamshanuvchilar arzimagan narsaga yig‘lab yuborishardi, Urfinning chag‘ir ko‘zlarida esa hech kim hech qachon biror tomchi yosh ko‘rmagandi.

Oradan bir necha yil o‘tdi. Kunlardan bir kun Urfin Jyus keksa jodugar Gingemaning oldiga borib, hizmatkorlikka olishni iltimos qildi. Yovuz sehrgar Gingema bundan juda

hursand bo'lib ketdi. Chunki yuz yillar davomida birorta tamshanuvchi o'z ixtiyori bilan Gingemaga xizmat qilish istagini bildirmagan edi, u barcha buyruqlarini dag'dag'a bilan bajartirardi. Endi jodugarning turli-tuman topshiriqlarini jon-jon deb bajaradigan yordamchisi bor. Gingemaning buyruqlari tamshanuvchilarga qanchalik ko'ngilsiz bo'lsa, Urfin ularni shunchalik tezroq yetkazishga harakat qilardi. Johil duradgorga Moviy mamlakatning qishloqlarini kezib, aholiga: buncha ilon, sichqon baqayu zuluk va o'rgimchak topib berasan, deb soliq solish yoqib tushardi.

Tamshanuvchilar ilon, o'rgimchak va zulukdan juda qo'rqishardi. Bu buyruqni olgach, mitti mo'mintoy odamlar ho'ng-ho'ng yig'lashardi. Bunday paytlarda tamshanuvchilar qo'ng'iroqchalar jiringlab, yig'lashlariga halaqit bermasligi uchun qalpoqchalarini yechib qo'yishardi. Urfin esa o'z tug'ishganlarining ko'zyoshlarini ko'rib, zaharxanda bilan qah-qah uring kulardi. Keyin belgilangan kunda katta-katta savatlarni olib kelib, soliqlarni yig'ar va ularni Gingemaning g'origa yetkazardi. G'orda bu narsalar yo jodugarga ovqat bo'lar yoki yovuz sehrlar uchun ishlatalardi.

Kunlardan bir kuni inson zotini yomon ko'radigan yovuz Gingema ularni butunlay yo'q qilib tashlashni o'ylab qoldi. Jodu bilan qattiq bo'ron ko'taib, uni tog' va sahrolar orqasiga yubordi. Bo'ron bilan barcha shaharu qishloqlarni vayron qilmoqchi, odamlarni vayronalar ostiga ko'mib tashlamoqchi bo'ldi.

Lekin uning bu niyati amalga oshmadidi. Sehrli mamlakatning shimoli-g'arbida rahmdil sehrgar Villina yashardi. U Gingemaning yovuz niyatini bilib qolib, uni chippakka chiqardi. Villina bo'ronga faqat Kanzas cho'lidagi g'ildiraklari olib tashlangan soyabon arava-uchchani uchirib ketishga ruhsat berdi. Villinanning buyrug'iga binoan bo'ron uchchani tamshanuvchilar mamlakatiga keltirib, Gingemaning boshiga tashladi, yovuz sehrgar til tortmay o'ldi.

Villina o'z jodusining qanday ta'sir etganini ko'rish uchun borib, hayron qoldi: uychada Elli ismli qizcha o'tirardi. U bo'ron uchchani ko'tarib ketmasidan sal o'din sevimli kuchugi Totoshkani olib chiqish uchun uychaga kirgan ekan.

Villina qizchani uyiga qaytarib yuborolmadi, unga sehrli mamlakatning markazi – Zumrad shaharga borib, sehrgar Gudvindan yordam so'rashni maslahat berdi. Zumrad shahar hokimi buyuk va dahshatli Gudvin haqida har xil gaplar yurardi. Mish-mishlarga qaraganda, dalalarga cho'g' yomg'iri yog'dirish yoki hamma yo'llarni kalamush va

cho'lbaqalarga to'ldirib tashlash Gudvin uchun hech gap emasdi. Shuning uchun ham biror o'ylamay aytilgan so'z sehrgarni ranjitib qo'ymasin deb, Gudvin haqida shivirlashib, ehtiyyotlik bilan gaplashishardi.

Elli rahimdl parining maslahatiga ko'ra Gudvinniing oldiga yo'l oldi. U sehrgar odamlar aytganchalik daxshatl bo'lmasa kerak, mening Kanzasga qaytib ketishimga yordam beradi, degan umidda edi. Qizcha johil duradgor Urfin Jyusga duch kelmadi.

Ellining uychasi Gingemani bosib o'ldirgan kuni Urfin Gingemaning topshirig'i bilan Moviy mamlakatning uzoq chekkasiga ketgan edi. Jyus sehrgarning o'limi haqidagi habarni eshitib, ham hafa bo'ldi, ham hursand bo'ldi. U qudratli himoyachisidan ajralib qolganiga achinsa, endi sehrgarning boyligi va hokimiyatini qo'lga kiritishni o'ylab quvonardi.

G'or atrofida hech kim ko'rinasdi. Elli bilan Totoshka Zumrad shaharga jo'nab ketishdi.

Jyusning miyasida g'orga ko'chib kirib, o'zini Gingemaning vorisi va Moviy mamlakat hokimi deb e'lon qilish fikri tug'ildi, baribir mo'mintoy tamshanuvchilar bunga qarshilik ko'rsatisholmaydi.



Biroq mixlarga shoda-shoda qilib osib qo'yilgan sichqonlar, shiftdagи o'lik timsoh va boshqa sehrgarlik anjomlari bilan biqsib ketgan g'or shu qadar zah va ko'rimsiz ediki, bundan Urfin seskanib ketdi.

– Vuy -y?!.. – deb g'o'ldiradi o'zicha. – Shu qaborda yashaymanmi?.. Yo'q, zarur kelgani yo'q!

Shundan keyin Urfin Gingemaning kumush kavushini qidirishga tushdi, chunki u shu kavushni juda ehtiyyotlashidan xabardor edi. U g'ormi ostin-ustin qilib yubordi, lekin kavush topilmadi.

Yuqoridaq qo'noqdan "uh-uh-uh!" degan masharaomuz ovoz eshitildi. Urfin cho'chib ketdi.

Yuqoridaq una ukki qorong'ida sarg'ish kozlarini chaqnatib, qarab turardi.

- Bu senmisan, Guam?
- Guam emas, Guamokolatokint, – ming'irlab e'tiroz bildirdi ukki.
- Boshqa ukkilar qani?
- Uchib ketishdi.
- Sen nega ketmading?

– O'rmonda nima qilaman? Oddiy ukki-yu boyo'g'lilardek qush ovlab yuramanmi? Hecham-da!. Mendek keksa va donishmand ukkiga bunaqa sertashvish ishlar to'g'ri kelmaydi.

Jyusning miyasiga yalt etib ayyorona bir fikr keldi.

– Menga qara Guam... – dedi Urfin. Ukki indamadi. – Guamoko... – Yana indamadi. – Guamokolatokint!

- Qulog'im senda, – dedi ukki.
- Menikida yashaysanmi? Seni sichqon va barra qush go'shti bilan boqaman.
- Bekorga boqmaysan-da, – deb to'ng'illadi donishmand qush.
- Odamlar seni menga hizmat qilayotganiningni ko'rib, meni sehrgar deb hisoblashadi.
- Gaping ma'qul, – dedi ukki, – senga shuni aytib qo'yayki, kumush kavushni qidirib ovora bo'lma. Uni zoti menga noma'lum hayvoncha olib ketgan.

Ukki Urfinga o'tkir ko'zlarini qadab:

- Baqa bilan zulukni qachon yeysan? – deb so'radi.

– Nima? – dedi Urfin hayron bo‘lib. – Baqa bilan zuluk yeishihs deysanmi?
Nega yer ekanman?

– Shuning uchunki, yovuz sehrgarlar odatda shunaqa narsalar bilan
ovqatlanishadi. Gingemaning sichqon yeb, ketidan zuluk yutishi esingdami?

Urfin buni eslarkan, seskanib ketdi. U keksa sehrgar yeydigan narsalardan
irganar, Gingema ovqatlanayotganda biror narsani bahona qilib, g‘ordan chiqib
ketardi.

– Menga qara, Guamoko... Guamokolatokint, – dedi u hushomadgo‘ylik
bilan, – shularni yemasa bo‘lmaydimi?

Ukki sovuqqina javob qildi:

– Men aytdim-qo‘ydim, u yog‘ini o‘zing bilasan.

Urfin xo‘rsinib, jodugarning ba’zi narsalarini oldi-da, Ukkini yelkasiga
o‘tqazib, uyiga jo‘nadi.

Yolda duch kelgan tamshanuvshilar Urfinni ko‘rib, qo‘rqqanlaridan o‘zlarini
chetga olishdi.

Uyiga kelgach, Urfin odamovilik qilib, hech kimga ko‘rinmay ukki bilan
yashay boshladi.



Birinchi qism

G'AROYIB KUKUN





G'ALATI O'SIMLIK

Kunlardan bir kuni kechqurun qattiq bo'ron ko'tarildi. Bu bo'ronni yovuz Urfin Jyus chaqirgan deb o'ylab, tamshanuvchilar qo'rquvdan qalt-qalt titrab, hozir uylari vayron bo'lishini kutib o'trishdi.

Lekin hech qanday voqeа ro'y bermadi. Ammo Urfin Jyus ertalab polizni aylanib, salat ekilgan jo'yaklarda och yashil rangli bir necha g'alati o'simlik nish urib chiqqanini ko'rdi. Chamasi polizga bu o'simlikning urug'ini bo'ron keltirgan bo'lsa kerak. Biroq ularning qaysi mamlakatdan uchib kelgani sirligicha qoldi.

— Jo'yaklarni yaqindagina o'tagan edim, yana begona o't bosyapti, — dedi Urfin Jyus to'ng'illab. — Hali shoshmay turlaring, kechqurun hammangning dodingni berañan.

Urfin tuzoq qo'yib kelgan o'rmonga borib, kuni bilan qolib ketdi. U Guamdan bekitiqcha tova bilan yog' olvolgandi. Tuzoqqa ilingan semizgina quyonni qovurib mazza qilib yedi.

Kechqurun uyiga qaytgan Jyus hayratdan dong qotib qoldi. Salat jo'yaklarida odam bo'yi keladigan qalin yaproqli yam-yashil butalar o'sib yotardi.

— Ana holos! — dedi Urfin baland ovozda. — Bu o'tlar darrov o'sib ketibdi-ya!

Urfin polizga kirib, o'tlarni ildizi bilan sug'urib tashlamoqchi bo'lib bir butaga yopishdi. Qani endi sug'urilsa! Hatto joyidan qilt etmadni, o'simlikning tanasi va yaproqlarini qoplagan tikanlar Urfinning qo'llariga kirdi.

U achchiqlanib, kaftlaridagi tikanaklarni olib tashladi-da, charm qo'lqop kiyib, yana o'simliklarni tortishga tushdi. Lekin sug'urib olishga kuchi yetmadi. Shundan keyin Urfin bolta olib kelib, o'simlikni tagidan chopcha boshladidi.

Bolta o'simlikni "shart, shart" qirqar va tik poyalarni ketma-ket qulatardi.

Urfin Jyus har bolta urganda: – Mana senga, mana, mana senga! – der, begona o'tlar bilan huddi jonli dushmanha qarshi urushayotgandek jang qilardi.

Qosh qoraygandagina hamma o'simliklarni chopib bo'lib, xorigan Urfin yotishga ketdi.

Ertasiga ertalab u peshayvonga chiqqanida hayratdan tepe sochi tikka bo'ldi.

Noma'lum o'tning ildizlari qolgan salat jo'yaklarida ham, kesilgan poyalar tashlangan zarang yo'lkalarda harn – hamma yoqda ko'm-ko'k qalin yaproqli, baland begona o't o'sib yotardi.

– Hali shunaqami! – dedi Urfin g'azab bilan qichqirib va ularga qarshi kurash boshladidi.

Endi ularni ildizi bilan oldi-da, o'tin yoradigan to'nka ustida mayda-mayda qilib chopdi.

Polizning oxiridagi daraxtlar orqasida sayhon yer bor edi. Urfin qiymalangan poyalarni o'sha yerga olib borib, jahl bilan har tomonga uloqtirib yubordi.

Kuni bilan ishlab, nihoyat polizni bosqinchi o'tlardan tozalab charchagan Urfin dam olgani ketdi. U uyqusida bezovta bo'lib, yomon tush ko'rib chiqdi. Tushida noma'lum o'simliklar uni qurshab olib, tikanaklarini sanchimoqchi bo'lishardi.

Duradgor tong saharda o'rnidan turib, qiymalangan poyalarni nima bo'lqanini ko'rgani to'ppa-to'g'ti sayhonlikka yo'l oldi. Eshikni ochishi bilanoq sayhonlikka ko'zi tushdi-yu, sekingina uh tortib, madorsizlikdan o'tirib qoldi. Hech qanday giyoh bitmaydigan sayhonlik yosh nihollar bilan qoplangan edi.

Urfin kecha qiymalangan o'simlikni g'azab bilan uloqtirganida uning suvi devor ustunlariga, daraxt tanalariga sachragan edi. Bugun ana shu yerlarda ham ildiz otib, yosh nihollar paydo bo'libdi.

Urfin kutilmagan jumboqdan hayratlanib, etigini yechdi. Uning tagcharmlarida

ham mayda yashil niholchalar o'sib yotardi. Shuningdek, kiyimlarining choklarida ham, o'tin yoradigan to'nkada ham niholchalar o'sib yotardi. Jyus yugurganicha hujraga kirdi. Boltaning sopi ham nihollar bilan qoplangandi.

Urfin peshayvonda o'tirib: "Nima qilsam ekan? Boshqa yerga ko'chib ketsammikin-a", deb o'ylanib qoldi. Lekin o'rganib qolgan uyi, polizini tashlab ketishga ko'zi qiymadi.

Urfin ukkining yoniga bordi. Ukki qo'noqda kunduz yorig'udan sarg'ish ko'zini qisib o'tirardi. Jyus unga o'z boshiga tushgan falokatni gapirib berdi. Ukki o'ylanib, anchagacha hodachada tebranib turdi-da, keyin:

– Ularni oftobda kuydirib ko'r, – deb maslahat berdi.

Urfin bir necha niholchani maydalab qirqdi-da, chetlari bukilgan tunuka tovaga solib, misdek qizib yotgan ochiq maydonga olib borib qo'ydi.

– Qani ko'raylik-chi, bu yerda ham o'sarmikansanlar! – dedi u jahl bilan to'ng'illab. – Agar o'sib chiqsang, men bu yerlardan ketaman.

O'simlik bu yerda o'smadi. Ildizlari tunukani teshib o'tishga ojizlik qildi. Sehrli mamlakatning jazirama quyoshi bir necha soat ichida yashil niholchalarni qo'ng'ir tusli kukunga aylantirdi.

– Guamni har holda bekorga boqmayotgan ekanman, dono qush... – dedi Urfin ukkidan hursand bo'lib.

Jyus zambilg'altakni olib, uy bekalari somsa pishiradigan tunuka tovalarni yig'ib kelish uchun Kogidaga jo'nadi. U yerdan ancha-muncha tova yig'ib qaytdi.

Urfin o'simliklarga musht o'qtalib tishlarini g'ijirlatib:

– Endi senlarning dodingni beraman, – deb qo'ydi.

Kunduzi bir oz hordiq chiqarganini hisobga olmaganda, Urfin Jyus kechasiyu kunduzi tinimsiz ishladi.

U ishni tartib bilan olib bordi. Har gal kichikroq bir maydonchani belgilab, uni birorta giyoh ham qoldirmay yaxshilab tozaladi. Ildizi bilan kavlab olingan o'simliklarni temir tog'orada maydlab, oftob tig'iga bir tekisda qator qilib terib qo'yilgan tunuka tovalarga solib quritdi. Qo'ng'ir tusli kukunni Temir chelaklarga solib, temir qopqoqlar bilan zichlab yopib qo'yaverdi. Tirishqoqlik va sabotilik o'z natijasini ko'rsatdi. Duradgor yovuz o'tning unishiga birorta ham o'rin qoldirmadi.

Yam-yashil o'simlik bilan qoplangan yer kun sayin kamayib bordi. Nihoyat songgi o'simlik tupi ham kukunga aylandi.

Bir haftalik betinim ish Jyusni shunday holdan toydirdiki, hatto madorsiz oyoqlari chalishib keta boshladi. Urfin ostonadan o'tayotib, qoqilib ketdi, qolidagi chelak qiyshayib, eshik oldiga to'shalgan ayiq terisiga kukun to'kildi.

Duradgor buni ko'rmadi: u so'nggi chelakni ham uyga olib kirib, qopqog'ini yopdi, karavotiga yotdi-yu, qattiq uyquga ketdi.

Urfinni kimdir karavotdan osilib qolgan qo'lidan tortqilab uyg'otdi. U ko'zini ochdi-yu, qo'rquvdan dong qotib qoldi: ayiq karavot yonida turib, chakmonining yengidan tishlab tortmoqda edi.

"Endi o'ldim, u meni qiymalab tashlaydi, – deb o'yladi duradgor, – tavba, ayiq uyga qayerdan kirib qoldiykin? Eshik yopiq edi-ku!..."

Daqiqalar o'tgani sari ayiqning hech qanday yomon niyati yo'qligi ma'lum bo'ldi. U faqat Urfinning yengidan tortardi, holos. Nihoyat, yo'g'on hirillagan ovoz eshitildi:

– Xo'jayin! Tur o'rningdan, shuncha uxlaganing yetar!

Urfin Jyus esankirab qolganidan karavotidan ag'darilib tushdi; chunki ilgari eshik oldida yotgan ayiq terisi endi Urfinning karavoti yonida to'rt oyoqda turib, boshini liqillatardi.

"Bu o'rgatilgan ayig'imning terisi. U yuryapti, gapiryapti... Bu qanday karomat? Nahotki to'kilgan kukundan bo'lsa?..."

Urfin oz fikrining tog'ri-noto'g'riliгини tekshirish uchun ukkiga murojaat qildi:

– Guam... Guamoko!



Ukki indamadi. – Hoy bezbet qush, menga qara! – dedi duradgor jahl bilan qichqirib. – La’nati isnningni to‘la aytaman deb shuncha vaqt qiyalganim yetar! Agar javob berishni istamasang, o‘rmonga jo‘na, ovqatingni ham o‘zing topib ye!

Ukki murosasozlik bilan javob qildi:

– Bo‘ldi, qizishma! Guamoko bo‘Isa, Guamoko, lekin bundan qisqartirib atashingga men rozi emasman. Menden nimani so‘ramoqchi eding?

– Noma’lum o‘simlikning hayotbaxshligi to‘g‘rimi, uning kukuni hatto ayiq terisini ham tiriltirib yuboribdi-ya?

– To‘g‘ri. Bu haqda men ukkilarning eng donosi, katta bobomdan eshitgan edim. Uning ismi Karitofilaksi...

– Boldi! Bas qil, – dedi Urfin ovozining boricha baqirib. – Hoy, teri , sen joyingga bor, mening o‘ylashimga xalaqit berma!

Teri itoatkorlik bilan eshik oldiga borib, o‘z joyiga yotdi.

– Ana xolos! – dedi Urfin paxmoq sochli boshini kaftlari orasiga olib o‘tirarkan. – Endi bu narsaning men uchun foydasi bormi, yo‘qmi, shuni bilishim kerak.

Ancha vaqt hayol surib o‘tirgach, shuhratparast duradgor bu narsa menga soydali, degan qarorga keldi. Chunki bu kukun narsalar ustidan hukmronlik qilish imkonini beradi.

Lekin hali hayotbaxsh kukunning nimalarga qodirligini sinab ko‘rish kerak edi. Stol ustida Urfin yasagan ko‘k, qizil va yashil patli qo‘g‘irchoq to‘ti turardi. Duradgor kukundan bir chimdim oldi-da, uni qo‘g‘irchoq to‘tining boshi va orqasiga sepdi.

Ajoyib voqeа ro‘y berdi. Kukun sekin vishillab tutadi-da, to‘ti patlari orasiga singib, qo‘g‘irchoq qimirladi, keyin boshini ko‘tarib, atrofga ko‘z yogurtirdi... Jon kirgan to‘ti qanotlarini qoqdi. Qattiq chig‘illab, ochiq oynadan uchib chiqib ketdi.

– Ta’sir qildi! Ta’sir qildi! – sevinchdan baqirib yubordi Urfin. – Tag‘in nimada sinab ko‘rsam ekan?

Devorga bezak sifatida kiyikning ikkita shohi qoqib qo‘yilgan edi. Urfin ularga ham hayotbaxsh kukundan sepdi.

– Qani ko‘raylik-chi, nima bo‘larkin? – deb kulimsirab qo‘ydi duradgor. Oradan ko‘p o‘tmay, shoxlar ustida yengil tutun ko‘rinib, kukun g‘oyib bo‘ldi... Devorga qoqilgan mixlar g‘ichirlab sug‘urildi, shoxlar sharaqlab yerga tushdi-da, jon-jahdi bilan Urfinga tashlandi.

Urfin dod solib, shoxlardan qochdi. Biroq shoxlar uni karavotda ham, sto ustida ham, stol ostida ham chaqqonlik bilan quvishardi. Ayiq terisi esa qo‘rqanidan yopiq eshikka qapishib oldi.

– Xo‘jayin! – deb qichqirdi u, – eshikni och!..

Urfin shoxlarga chap berib, eshikning zanjirini ochdi-da, o‘qdek otilib, peshayvonga chiqdi. Uning ketidan o‘kirkancha ayiq terisi, keyin dahshatli dikanglab shoxlar chiqdi. Peshayvonda to‘s-to‘polon ko‘tarilib, bir-birini quvib, zinadan dumalab tushishdi. Uydan ukkining masharaomuz hu-hulagani eshitildi, shoxlar ko‘cha eshikni suzib qulatdi-da, sakrab-sakrab o‘rmonga yugurdi. Beli mayishgan, hammayog‘i ko‘kargan Urfin zo‘rg‘a o‘rnidan turdi, ingrab, biqinlarini ushlab ko‘rdi:

– Jin urgur! Shunchalik suzadimi!

Ayiq terisi ta’na bilan:

– Xo‘jayin, hozir kiyiklarning ayni quturgan payti-ku, nahotki shuni bilmasang. Haliyam tirik qolganingga shukur qil... Endi bu shoxlar o‘rmondagи kiyiklarga kunini ko‘rsatadi! – Ayiq terisi xirillab kulib yubordi. Urfin bundan, kukunni ehtiyyotlik bilan ishlatish lozim, duch kelgan narsani tiriltiravermaslik kerak, degan hulosaga keldi. Uy ichi ag‘dar-to‘ntar bo‘lib ketgan: hamma narsa ag‘anagan, idish-tovoq chil-chil bo‘lgan, yirtilgan yostiqlarning parlari to‘zg‘ib uchib yurardi. Jyus ukkiga jahl bilan qarab:

– Shoxlarni tiriltirish havfli ekanini nega menga aytmading? – dedi.

Kek saqllovchi qush:

– Guamokolatokint aytgan bo‘lardi, Guamokoda esa bunga farosat yetmadi, – deb javob qildi.

Urfin makkorligi uchun ukkidan keyinroq qasd olishni ko‘ngliga tugib, xonani yig‘ishtirishga kirishdi. U bir vaqtlar yog‘ochdan yasagan qiziqchi qog‘irchog‘ini yerdan oldi. Qiziqchining yuzi dahshatli, o‘tkir tishlarini irjaytirib turardi, shuning uchun hech kim xarid qilmagan edi.

– Menimcha, sen shoxlarga o‘xshab yomonlik qilmasang kerak, – dedi Urfin qiziqchiga kukunni separkan.

Keyin qo‘g‘irchoqni stol ustiga qo‘ydi-da, o‘zi uning yonidagi kursiga o‘tirib, hayolga cho‘mdi. Nihoyat, u qattiq og‘riqdan hushiga keldi: jon kirgan qo‘g‘irchoq uning barmog‘ini tishlab olgan edi.

– Sen ham shunaqamisan, yaramas! – g‘azabi qaynagan Urfin Jyus qiziqchini aylantirib yerga urdi.

Qo‘g‘irchoq oqsoqlanib uyning burchagiga bordi, sandiqning orqasiga yashirindi-da, qo‘l-oyog‘i, boshini liqillatib o‘zini ovutib o‘tiraverdi.

URFIN JYUSNING SHUHRATPARASTLIK REJALARI

Kunlardan bir kun Urfin peshayvonda o‘tirib, ayiq terisi bilan Guamokoning janjaliga quloq soldi.

– Sen, ukkivoy, xo‘jayinni yomon ko‘rasan, – derdi teri to‘ng‘illab. – Kiyik shohlariga jon kiritish xavfli ekanini bila turib, jo‘rttaga indamading... Sen doim mug‘ambirlik qilyapsan, ha, ukki, mug‘ambirlik qilyapsan. O‘rmonda yashaganimda ukkilarning qanaqaligini juda yaxshi bilib olganman. Hali shoshmay tur, dodingni bermasammi...

– Ux-ux-ux! – ukki, qo‘noqda o‘tirib mazah qilardi. – obbo vaysaqi po‘staginey! Qo‘rqitib yubording-ku!

– Po‘stakligim rost, – dedi teri g‘amginlik bilan tan olib. – Xo‘jayinga aytib, ichimga qipiqliq tiqdiraman, bo‘lmasa yurishga toshim yengillik qilyapti, sal shamol bo‘lsa, ag‘darilib tushaman...

“Buni yahshi o‘ylabdi, – deb qo‘ydi Jyus ichida, – shunday qilishim kerak”.

Ularning shovqini zo‘rayavergach, Urfin g‘azab bilan baqirdi:

– Hoy, nimaga vaqillashayapsizlar! Bas qilinglar!

Bahslashuvchilar shivirlab janjallashaverishdi.

Urfin Jyus kelajak rejalarini tuzardi. Endi u moviy mamlakatda yuqoriroq lavozimni egallashi kerak, albatta. Tamshanuvchilar Gingema o‘lgandan keyin hurmatli chol Prem Kokusni hukmron qilib saylashgan edi. Jyus bundan habardor edi.

Tamshanuvchilar mehribon Kokus boshchiligidə erkin va osoyishta kun kechirishardi.

Urfin uyg'a kirib, uyoqdan-buyoqqa yura boshladi. Ukki bilan ayiq terisining tovushi o'chdi. Jyus ovozini chiqarib fikrlay boshladi:

– Xo'sh, tamshanuvchilarga nima uchun Prem Kokus hokimlik qiladi? Nima, u mendan aqlli roqmi? Yoki menday mohir ustami? Yoki uning qaddi-qomati menikidan kelishgan roqmi? – Urfin Jyus g'urur bilan qaddini tikladi, ko'kragini kerib, lunjini shishirdi. – Yo'q, Prem Kokusning mendek bo'lisliga ancha bor!

– To'ppa-to'g'ri, xo'jayin, sen juda salobatlisan! – dedi ayiq terisi xushomadgo'ylik bilan Urfinning gapini tasdiqlab.

– Sendan so'rayotganim yo'q, – dedi Urfin baqirib. Keyin yana ovoz chiqarib xayol surishda davom etdi: – To'g'ri Prem Kokus mendan ancha badavlat! Uning ko'plab odamlar ishlaydigan katta yerlari bor. Lekin endi menda hayotbaxsh kukun bor, o'zimga keraklicha hizmatkor yasab olishim mumkin, ular daraxtlarni qirqib o'rmonni tozalashadi, mening ham yerlarim bo'ladi... To'xta, to'xta! Bordi-yu, xizmatkor emas, askar yasasam qanday bo'larkin? Ha, ha, ha! Men o'zimga, shafqatsiz askarlar yasab olaman, ana undan keyin tarnshanuvchilar meni tan olmay ko'rishsin-chi!



Urfin hayajondan xonada tez-tez yura boshladi: "Yaramas kichkina qiziqchining tishlagani hozirgacha og'riyapti, – deb o'yldi u, – agar kattalar bo'yiday yog'och odamlar yasab, ularni qurol ishlatishga o'rgatilsa bormi... Unda men Gudvinning o'zi bilan ham kuch sinasha olaman..."

Ammo duradgor qo'rqib, shu ondayoq og'zini yumdi: unga bu nojo'ya gapni baland ovozda aytgandek tuyuldi. Bordi-yu, buyuk va dahshatli Gudvin eshitib qolgan bolsa-chi? Hozir ko'rinmas qo'l tushib tilka-pora qiladigandek, Urfin yelkasini qisdi. Lekin hammayoq osoyishta edi, nihoyat u yengil tortdi.

"Har holda ehtiyyot bo'lish kerak, – deb o'yladi u. – Hozircha Moviy mamlakat ham yetib turadi. Keyin... keyinroq..."

Lekin u bundan ortig'ini o'ylashga jur'at etmadi.

...Urfin Jyus Zumrad shaharning chiroyliligi va boyligini bilar edi. U yoshlida Zumrad shaharni ko'rgan, uning maftun etuvchi hotiralari hali-hali unutilmagandi.

Urfin u yerda ajoyib binolarni ko'rgandi: pastdagisidan ustki qavati turtib chiqqan, ko'chaning u beti bilan bu betidagi binolarning toshlari deyarli bir-biriga tegay-tegay deb turardi. Shuning uchun ko'chalar hammavaqt nimqorong'i va salqin bo'lar, u yerga quyoshning nuri tushmasdi. Shahar aholisi ko'zlariga yashil ko'zoynak taqib sayr qilib yurgan bu nimqorong'ilikda faqat uy devorlarigagina emas, hatto ko'cha toshlari orasiga ham terilgan zumradlar sirli nur sochib tovlanardi.

Qanchadan qancha boylik! Bu narsalarni qo'riqlash uchun sehrgar ko'p sonli qo'shin saqlamasdi. Gudvinning yakkayu-yagona askari bo'lib, uni Din Gior deb atashardi. Bir qarashidayoq dushman qo'shining kulini ko'kka sovura oladigan Gudvinga qo'shining keragi ham yo'q edi.

Din Giording soqolini tarashdan bo'hqa tashvishi yo'q edi. O'zi ham soqolmisan, soqol edi-da! Naq yerga teg'ib turar; askar uni ertadan-kechgacha illur taroq bilan tarat, gohida kokildek 'rib ham qo'yardi.

Saroy bayrami kezlarida Din Gior maydonda yig'ilgan bekorchilarga askar aslqajarini ko'rsatardi. U qilich, na'za va qalqonlarni shunday mohirlik bilan chistaridi ki, bundan tomoshbinlar foyratda qolishardi.

Namoyish tugagach. Urfin D' Giording yoniga borib so'ragandi:

– Hurmatli Din Gior, Sizga qoyil qolganimni bayon qilmay turolmayman. Ayting-chi, bunday ajoyib hunarni qayerdan o'rgangansiz?

Xursand bo'lib ketgan askar shunday javob qilgandi:

– Qadim vaqtarda bizning mamlakatimizda ko'p urushlar bo'lgan, buni yilnomadan o'qib olganman. Men boshliqlar askarlarni qanday o'rgatganligi, qanday harbiy mashqlar bo'lgani, buyruqlar qanday berilgani haqidagi qadimiy harbiy qo'lyozmalarni qidirib topdim. Bularning hammasini qunt bilan o'rgandim, amalda sinab ko'rdir... Nihoyat, mana, natijasi yomon bo'lindi!..

Urfin askarning harbiy mashqlarini xotirlash uchun yog'och qiziqchi bilan mashg'ulot o'tkazishga jazm qildi.

– Hoy, qiziqchi! Qayerdasan? – deb qichqirdi u.

– Bu yerdaman, xo'jayin, – deb chiyillagan ovoz eshitildi sandiq orqasidan.

– Sen yana urmoqchimisan?

– Chiqaver, qo'rhma, men sendan xafa emasman.

Qiziqchi yashiringan joyidan chiqdi.

– Qo'lingdan qanday ish kelishini sinab ko'rmoqchiman, – dedi Urfin, – harbiylarcha yurishni bilasanmi?

– U nima deganining, xo'jayin?

– Meni bundan keyin xo'jayin emas, hukmdorim, deb ata! Sen ham buni qulog'ingga quyib ol, teri!

– Xo'p oo'ladi, hukmdorim! – deyishdi qiziqchi bilan ayiq terisi baravariga.

– Harbiycha yurish – bu oyoqni gurs-gurs qilib yurish, buyruq bilan o'ng, so'l yoki orqaga aylanish demakdir.

Qiziqchi ancha farosatl ekan, y askar bilimini tezda o'rganib oldi-yu, lekin Urfin yasagan yog'och qilichni ushlay olmadi. Qiziqching barnoqlari bo'lmay, qo'li musht qilib tugilgandi.

– Bo'lajak askarlarimga harakatchan barnoqlar yasashga to'g'ri keladi, – degan qarorga keldi Urfin Jyus.

Mashq kechgacha davom etdi. Urfin komanda berishdan charchadi. Qiziqchi esa hamon bardam edi, uning charchagani bilinmas edi. Shunday bo'lishi kerak edi-da: yog'och ham charchaydimi, ahir?

Dars paytida ayiq terisi o‘z hukmdoriga qoyil qolib boqar va uning barcha buyruqlarini shivirlab takrorlardi. Guamoko esa nafratlanib, sariq ko‘zlarini qisib olgan edi.

Urfin hersand edi. Lekin endi uni, hayotbahsh kukunimni o‘g‘irlab qo‘yishmasa edi, degan vahima bosdi. U eshik orqasidan uchta tanba tirab, kukun solingan chelaklar turgan omborchcha eshigini mixlab tashladi. Shunda ham havotirlanib tiq etgan tovushdan uyg‘onaverdi.

Tamshanuvchilardan olinib, endi keraksiz bo‘lib qolgan tunuka tovalarni egalariga qaytarib berish mumkin edi.

Jyus Kogidaga tantana bilan kirib bormoqchi bo‘ldi. Ayiq terisini qo‘sish uchun Urfin zambilg‘altakni buzib, undan arava yasadi. Shunda u teri bilan ukki o‘rtasida bo‘lib o‘tgan bahsni esladi.

– Menga qara, teri, – dedi Urfin. – Sen juda yengilsan, oyog‘ingni mahkam bosolmaysan, shu boisdan ichingni qipiqlanib to‘ldirmoqchiman.

– Ey, hukumdorim, qanday donishmandsan-a! – qichqirib yubordi soddadil teri.

Urfinning ishxonasida qipiqlanib serob bo‘lib, birpasda terining ichi qipiqlana to‘ldirildi. Ishni bitirgan Jyus xayolga cho‘mdi.

– Teri, endi men senga nom qo‘yaman. – dedi u nihoyat.

– Ey, hukumdorim! – deb yana quvonch bilan qichqirdi ayiq terisi. – Bu nom ukkinikidek uzun bo‘ladimi?

– Yo‘q, – dedi Jyus sovuqqina. – Aksincha, u qisqa bo‘ladi. Seni Topotun deb atayman.

Ochiqko‘ngil ayiqqa yangi nomi juda yoqib ketdi. U sevinganidan qichqirib yubrdi:

– Qanday yaxshi! Mening nomim Moviy mamlakatdagi nomlar ichida eng jarangdori bo‘ladi: To-po-tun! Ukki endiyam mening jig‘imga tegib ko‘rsin-chi!

Topotun og‘ir qadam tashlab ichkaridan chiqarkan, quvonch bilan o‘kirdi:

– Mana endi, o‘zimni har holda chinakam ayiqdek his qilayapman.

Urfin Topotunni aravaga qo‘shti. Guamoko bilan qiziqchini o‘zi bilan olib dabdaba bilan Kogidaga kirib bordi. Arava qatqaloqlar ustidan gursillab yurganda

tunuka tovalar bir-biriga urilib, taraqa-turuq bo'lib ketardi. Bundan hayratlangan tamshanuvchilar to'da-to'da bo'lib yugurib kelishardi.

- Urfin Jyus qudratli jodugar ekan, u bultur o'lgan xonaki ayiqni tiriltiribdi...
- deyishardi ular bir-birlariga shivirlab.

Urfinning qulog'iga chalingan buuzuq-yuluq shivirlashlardan uning qalbi g'ururga to'lardi. Uy bekalariga o'z tovalarini tanlab olishlarini buyurdi. Ayollar ayiq va ukkiga qo'rquv aralash qarab, aravani bo'shatishdi.

- Endi Kogidaning xo'jayini kim ekanligini tushundilaringmi? – deb so'radi Urfin g'azab bilan.

Tamshanuvchilar itoat bilan:

- Tushundik, – deyishdi-da, yig'lab yuborishdi.

Uyda Urfin o'ylab ko'rib, kukunni juda ham tejab sarflashga qaror qildi. Utunukachiga bir necha dona qopqog'i buralib zinch yopiladigan ko'za yasashni buyurib, kukunlarni ularga soldi-da, ko'zalarni bog'dagi daraxt ostiga ko'mib qo'ydi. Chunki endi omborxonaga qo'yishga ishonmasdi.



YOG‘OCH QO‘SHINNING TUG‘ILISHI

Bir o‘zi, hatto, kamsonli yog‘och qo‘shinni yasaganda ham ish ancha cho‘zilib ketishini Urfin Jyus bilardi.

Shuning uchun Kogidaga ayiqni yubordi. Ayiqning do‘rildoq ovozini eshitgan tamshanuvchilar yugurib kelishdi. Ular juda qo‘rqib ketishgan edi. Topotun:

– Bizning hukmdorimiz – Urfin Jyus o‘rmonda yog‘och kesish uchun har kuni oltitadan odam yuబorib turushingizni buyurdi. Ular o‘z boltalari va arralari bilan borishlari lozim, – deb e’lon qildi.

Tamshanuvchilar o‘ylab ko‘rib, yum-yum yig‘lashdi... va noiloj rozi bo‘lishdi.

O‘rmonda Urfin Jyus qulatish kerak bo‘lgan daraxtlarga belgi qo‘yib, ularni qanday kesishni ko‘rsatib berdi.

Tayyorlangan g‘o‘lalarni o‘rmondan Urfinnig uyiga Topotun keltirar, duradgor ularni quritishga qo‘yardi, yorilib ketmasligi uchun ularni oftobda emas, soyada quritardi.

Bir necha haftadan keyin, xodalar qurigach, Urfin Jyus ishga kirishdi. U bolta bilan xomaki gavdalar yo‘ndi. Qo‘l va oyoqlarni tayyorladi. Urfin hozircha har birida o‘ntadan askar bo‘lgan beshta vzzvod bilan kifoyalanmoqchi bo‘ldi. U Moviy mamlakatni bosib olish uchun shuning o‘zi yetarli, deb hisoblardi.

Har o‘ntasiga bittadan kapral, hammasiga esa yog‘och qo‘shin boshlig‘i – general qo‘mondonlik qiladi.

Qarag‘ayni yo‘nish osonroq bo‘lgani uchun Urfin askarlarning gavdasini qarag‘aydan yasamoqchi bo‘ldi. Kalla qo‘yib urushishlari mumkinligini hisobga olib, boshlarini emandan yasashga qaror qildi. Umuman, o‘ylamaydigan askarlarning boshi emandan yasalgani ma’qul.

Urfin kaprallar uchun qizil yog‘och kestirdi, general uchun o‘rmondan arang qattiq palisondr daraxtidan topdi. Boshi emandan yasalgan qarag‘ay askarlar qizil yog‘ochdan tayyorlangan kaprallarga itoat etadi, kaprallar esa, chiroyli palisondr daraxtidan yasalgan generalga xushomad qiladi.

Rosmana odam bo‘yidek yog‘och odamlarni Urfin birinchi yasashi edi, shuning uchun avval tajribaga askarni yasab ko‘rdi. Bu askarning basharasi

vahshiyona, ko'zi o'rniga shisha tugmalar qadaldi. Urfin askarga jon kirgizish uchun uning boshi va gavdasiga ajoyib kukundan sepdi, bir ozdan keyin yog'och qo'l harakatga kelib, Urfinni shunaqangi urdiki, u besh qadam nariga uchib tushdi. Urfinning g'azabi qaynab, qo'liga bolta oldi, yerda yotgan yog'och qo'g'irchoqni mayda-mayda qilib tashlamoqchi bo'ldi-yu, shu payt es-hushini yig'ishtirib oldi.

"O'zimga-o'zim ish orttiraman-ku, – deb o'yładi u, – o'zi ham rosa kuchli chiqibdi... Bunday askarlar bilan men sira yengilmayman".

Ikkinchı askarnı yasab bo'lgach, Urfin o'ylab qoldi: qo'shinni bunyod qilish uchun bir necha oylar kerak ekan. U tezroq urush qilishga oshiqardi. Shuning uchun dastlab yasagan ikki askarnı shogird qilishga qaror qildi.

Yog'och odamlarnı duradgorlik hunariga o'rgatish oson bo'lmadi. Ish shunchalik sekin siljirdiki, hatto matonatli Jyusning ham toqati toq bo'lib, yog'och shogirdlarini qattiq haqoratlardi.

– Miyang qursin! Zarangboshlar!..

Bir gal ustozning jahl bilan: "Shundan keyin seni nima deb atash mumkin!" – degan savoliga shogird o'zining yog'och ko'kragiga yog'och mushti bilan to'q-to'q urib: "Men Zarangboshman!" deb javob qildi.

Urfin xaxolab kulib yubordi:

– Mayli! Zarangbosh bo'la qolsin. Bu sizlarga juda mos keladigan nom! – dedi

Zarangboshlar duradgorchilikni bir oz o'rganishgach, ustaga yordam bera boshlashdi: bo'lajak askarlar uchun tana, qo'l va oyoqlar yashashdi, barmoqlar yo'nishdi.

Shuningdek, ishda kulgili voqealar ham ro'y berib turdi. Kunlarning birida Urfin ish bilan bir yoqqa chiqib ketdi. U shogirdlariga arra berib, o'ntacha xodan mayda-mayda arralab qo'yishni buyurdi. Urfin qaytib kelgach, yordamchilarining qilib qo'ygan ishlarini ko'rib, juda achchiqlandi. Shogirdlar xodalarni tez-tez arralashibdi-da, boshqa ish qolmaganidan ko'zlariga ko'ringan narsani: dastgoh devor, darvoza – hamma narsani arralayverishibdi. Hovli faqat o'tinga yaraydigar mayda yog'ochga to'libdi. Lekin arrakashlar bu ham kamlik qilgandek, xo'jayig'aflat bosib bir oz kechikkan paytda to'rt shogird o'ylamay-netmay bir birlarining oyoqlarini arralab qo'yishibdi!

Kunlardan bir kun zarangbosh pona urib, katta g‘o‘lani yorayotgan edi. Tajribasiz shogird ponani o‘ng qo‘lidagi bolta bilan urayotib, chap qo‘lining barmoqlarini g‘o‘la yorig‘iga tiqib oldi... Pona chiqib ketib, barmoqlar qisilib qoldi. Zarangbosh barmoqlarini tortib olishga behuda urunardi. Keyin g‘o‘ladan qutulish uchun chap qo‘lining barmoqlarini qirqib tashladi.

Shundan beri Urfin shogirdlarini qarovsiz qoldirmaslikka harakat qilardi.

Urfin askar yasash ishini yo‘lga qo‘ygach, o‘zi qizil yog‘ochdan kapral yasashga kirishdi.

Kaprallar juda ajoyib chiqdi: ularning bo‘ylari askarlarnikidan baland, qo‘l va oyoqlari ham baquvvat, qizil yuzi har qanday odamni qo‘rqitadigan vahimali edi.

Askarlar komandirlarining huddi o‘zlariga o‘xshab, yog ochdan‘yasalganini bilmasliklari kerak edi, shuning uchun ham Urfin kaprallarni boshqa xonada tayyorladi.

Urfin Jyus kaprallar tarbiyasiga ko‘p vaqtini sarfladi. Ular o‘z hukumdori oldida ojizliklarini va uning har bir buyrug‘i qonun ekanligini, ammo askarlar uchun ular – kaprallar – talabchan va qattiqqo‘l boshliq ekanliklarini, ayni vaqtda askarlar ularni hurmat qilishlari va bo‘ysunishlari kerakligini tushunishlari lozim edi.

Boshliq belgisi sifatida Urfin kaprallarga temir daraxtdan yasalgan tayoq berdi va agar bu tayoqlar qo‘l ostidagilarning boshida sinsa, kaprallarni jazolamasligini aytdi.

Kaprallarni oddiy askarlardan baland darajaga ko‘tarish uchun Urfin ularga Arum, Befar, Vatis, Giton va Daruk degan ismlar qo‘ydi. Kaprallarni o‘rgatish tugagach, ular dimog‘dorlik bilan askarlar yoniga borishdi va ko‘ngildagidek harakat qilishmagani uchun ularni do‘pposlay ketishdi. Askarlar og‘riqni sezmasdi. Lekin o‘zlarining silliq randalangan badanlarida tayoq izlarini ko‘rib hafa bo‘lishardi.

Urfin Jyus kerakli ashyo va asboblarni ajratib oldi-da, uyni ichidan qulflab, palisondr yog‘ochidan general yasashga kirishdi. Yog‘och askarlarni nazorat qilib